



**GIYOHVANDLIKNI ERTA ANIQLASH VA UNGA QARSHI
KURASHISHNI JADALLASHTIRISH BO'YICHA
NAZARIY VA AMALIY TAKLIFLAR**

Kamolova Durdona

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Toshkent sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20577465>

Annotatsiya: Ma'lumki, inson salomatligi uchun eng katta xavf tug'diruvchi illatlardan biri bu - giyohvandlikdir. U xuddi xastalik kabidir, ya'ni giyohvandlik moddasi uni is'temol qilib ko'rgan insonni o'ziga o'rgatib qo'yadi, muntazam ravishda qabul qilish yo'lga beixtiyor o'tib qolayotganini insonni o'zi ham sezmay qoladi. Bu albatta, hayot va sog'liq uchun xavfli va jiddiy muammolarga sabab bo'luvchi holatdir.

Yigirma birinchi asrga kelib, insoniyat ahli giyohvandlikka va zaharvandlikka ruju qo'ydi, bu salbiy oqimga kiruvchilarning soni yildan-yilga orta boshladi. Giyohvandlik vositalarini oldi-sotdi ishlari bilan shug'ullanish orqali daromad orttirish ko'pchilikning asosiy kasbiga aylandi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan taqiqlanganligiga ham parvo qilmay, uni bevosita o'zining turar joy hududida ham narkotik o'simliklar ko'rinishida yetishtiruvchi qonunbuzarlik holatlari ham paydo bo'la boshladi, albatta. Ammo, bu hali hammasi emas. Hozirgi kunga kelib bu og'ufurushlarning asosiy daromad manbayi jamiyatda aholi orasida psixotrop moddalarni oldi-sotdi ishlarini yo'lga qo'yish bo'lib qoldi. Sun'iy ravishda yaratilgan narko laboratoriyalar esa bularga yaqqol misol bo'lib, ularda insonning miyasiga, ruhiyatiga qattiq ta'sir qila oluvchi dori vositalarini tayyorlash keng tarqala boshlandi. Ayni paytda, giyohvandlik nomi ostida atalayotgan bu zaharvandlik illati jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida kundan-kunga keng tarqalib bormoqda.

Contact: 99 826 99 56





Tashvishlanarli jihati shundaki, maktab o'quvchilari orasida bu illat nisbatan jadalroq tarqalayotganligidir. Ular o'zlari ham bilmagan holda, og'u biznesi bilan shug'ullanuvchi kimsalar uchun ajoyib manbaga aylanib qolmoqdalar.

Shunga qaramay, yurtimiz hududi bo'ylab Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan giyohvandlikni aniqlash va uni fosh etish yuzasidan olib borilayotgan tezkor tadbirlar o'zining ijobiy va samarali natijalarini bermoqda, albatta. Lekin, bu sa'y-harakatlar ba'zi holatlarda yetarli bo'lmayotgandek go'yo. Bu maqolada esa yuqoridagi muammoli holatlarning oldi olinishi natijasini yanada samarali ko'rinishga keltirish uchun bir qancha nazariy va amaliy takliflar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik (narkomaniya), zaharvandlik (toksikomaniya), giyohvandlik (narkotik) vositalari, psixotrop moddalar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari, prekursorlar, preparat, maxsus vakolatli organlar.

Maqola davomida giyohvandlik borasida so'z yuritishdan oldin mavzuga oid atamalarni ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz:

✓ **Giyohvandlik (narkomaniya)** - giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik

✓ **Zaharvandlik (toksikomaniya)** - psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalariga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik

✓ **Giyohvandlik (narkotik) vositalari** - giyohvandlik vositalari ro'yhatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan,

Contact: 99 826 99 56





kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar yoki o'simliklar

✓ **Psixotrop moddalar** - psixotrop moddalar ro'yhatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar

✓ **Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari** – kimyoviy tuzilishi va xossalariga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, sintetik yoki tabiiy moddalar

✓ **Prekursorlar** – prekursorlar ro'yhatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar

✓ **Preparat** – moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yohud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi

✓ **Maxsus vakolatli organlar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatlarga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar

Alkogolizmga, giyohvandlikka, zaharvandlikka, ruhiy kasalliklarga va

Contact: 99 826 99 56





atrofdagilar hayoti uchun xavf tug'diradigan kasalliklarga chalingan shaxslarni aniqlash, ularni hisobni yuritish nafaqat, Davlat Sog'liqni saqlash vazirligi, sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalarining vakolatlari va vazifalari balki, nu boshqa maxsus vakolatli organlarning ham eng asosiy funksional vazifalaridan biri hisoblanadi¹.

Darhaqiqat, har bir mamlakatda kasalliklarni tarqalishi, ularni oldini olish eng avvalo, sog'liqni saqlash muassasalarinining oliy funksiyasi va vazifasidir, jumladan, O'zbekistonda ham. Sog'liqni saqlash organlari - aholi sog'ligi uchun eng birinchi o'rinda javobga hisoblanuvchi soha. Bu borada u o'z vazifasini qonunda nazarda tutilgan hollar va organlar orqali ya'ni ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda samarali amalga oshiradi.

Ammo, ayni paytlarda qaysidir ma'noda giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashish vazifasi faqatgina Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xizmat doirasiga kiritilgandek bo'lib qola boshlagan. Ya'niki, **muammo shuki**, giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashishda hozirda, *Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning salmog'i va amalga oshirayotgan chora-tadbirlari mavjud bo'lib qolyapti, xolos*. Vaholanki, bu vazifa eng avvalo, sog'liqni saqlash organlarining ham dasturi-amal vazifalaridan biridir.

Bundan tashqari, narkomaniya va toksikomaniyaning jamiyatda keng tarqalayotganligiga bevosita ko'makchi bo'lib qolayotgan maktab o'quvchilari ya'niki, *yoshlar qatlamining katta bir qismining qiziqish bildirayotganligi* ham eng xavfli va **dolzarb muammolardan biridir**.

Vaholanki, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda

¹ "Huquqbuzarliklar to'g'risida"gi qonun. 18-modda 5-band. Toshkent – 14.05.2014 y





sog'liqni saqlash organlaridan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlarining o'z vazifalari jihatidan ishtirok etishlarida ham:

- ❖ sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash
- ❖ yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish
- ❖ yuqumli kasalliklarga va boshqa ijtimoiy xafvli

kasalliklarga, ichkilikbozlikka, giyohvandlikka, zaharvandlikka, kashandalikka hamda o'zga zararli illatlarga qarshi kurashishga doir profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish

kabi vazifalarni amalga oshirishlari qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan². Shunga qaramay, mas'ul bo'lgan tashkilotlar va muassasalar tomonidan yetarlicha xizmat olib borilmayotganligi, yoshlar hayoti va kelajagiga nisbatan paydo bo'layotgan e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlikning brogan sari kuchayib ketayotganligi, ta'lim muassasalarida ham bunday nohush holatlarga qarshi yuqori darajada kurashilmayotganligi va shu kabi bir qancha og'riqli jihatlarning tobora ortib borayotganligi jamiyatimiz uchun, xalqimiz uchun, qolaversa, Vatanimiz kelajagi uchun chinakam muammoli holatlardir.

Shu sababli ham giyohvandlikka qarshi kurashishning yanada samarali tashkil etilishi juda muhim. Bunga esa, albatta, puxta rejali chora-tadbirlarni amalga oshirish orqaligina erishish mumkin. To'g'ri, Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o'zaro hamkorlikda xizmat olib borishlari davomida jamiyat hayoti va sog'ligi uchun rostdan ham xavf bo'la oladigan giyohvandlik vositalarini, psixotrop modddalarni, ularning analoglari va prekursorlarini juda katta hajmlarda tezkorlik bilan aniqlab, ularni insonlar hayotiga to'la kirib bormasidanoq qo'lga

² "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun. 19-modda tegishli bandlari. Toshkent – 14.09.2016 y





olishmoqda. Ammo, bu borada ularga ko'maklashuvchi tashkilot va mutassadilar qatorini kengaytirish va ularga ham vazifa yuklash orqali ham samaradorlik darajasini bir qancha oshirishimiz mumkin.

Masalan:

➤ *Aholi salomatligini asrash eng birinchi navbatda, sog'liqni saqlash organlarining vazifasi ekanligini hisobga olgan holda, ularga giyohvandlikka berilmaslik va psixotrop moddalarni iste'mol qilmaslik xususida aholi o'rtasida maksimal ravishda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish*

Bunda, Sog'liqni saqlash organining hududiy muassasalari tomonidan o'zlariga tegishli hududlarida yuklatilgan vazifalarini bajaradilar va har oylik, har uch oylik, har olti oylik va yillik hisobda o'zlaridan yuqori turuvchi Sog'liqni saqlash organiga hisob beradilar. Negaki, giyohvadlik vositalari ham, psixotrop moddalar ham Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanadi ammo, shu holatlar sog'liqni saqlash organlari tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar va tushuntirishlar orqali oldi olinsa maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Ular esa, bu vazifalarni quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirishlari mumkin ya'ni:

- Aholi gavjum joylarda afishalar orqali giyohvadlik vositalari va psixotrop moddalar tarkibini, ularning inson sog'ligi uchun xavfi va zarari qay darajada yuqori ekanligini tushuntirish
- Katta avtomobil yo'llarida uchraydigan reklama monitorlarida ham giyohvadlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish sog'liq uchun o'ta salbiy ta'sir etishini anglatuvchi reklama va qisqa videolarni namoyish etish





➤ *Yoshlar o'rtasida ham mas'ul bo'lgan tashkilot va mutassaddilar tomonidan tushuntirishlar olib boorish*

Ma'lumki, hozirda har bir maktablarda Milliy gvardiya xodimlari, inspektor-psixologlar biriktirilgan. Ammo, barcha yuklamani ulrning zimmasiga topshirib qo'ymasdan maktabdagi ilmiy lavozimdagi xodimlar tomonidan ham sa'y-harakatlarni amalga oshirish lozim.

- Milliy gvardiya xodimlari, inspektor-psixologlar bilan hamkorlikda maktab direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari sinflarda favqulodda reydtadbirlarini o'tkazishi
- Sinf rahbarlari aynan o'zlari o'tadigan Simf soati darsida doimiy ravishda aynan giyohvandlikka oid yangiliklar bilan darsni boshlashi va buning huquqiy oqibatlari nima bilan tugashini tushuntirib berishi
- Biror bir o'quvchidan shubhalangan taqdirda esa, uni o'ziga bildirmay ota-onasi bilan bog'lanishi va bo'layotgan hamda bo'lishi mumkin bo'lgan holat haqida xabar berishi

Xulosa

Giyohvandlikka va zaharvadlikka qarshi kurashish nafaqat Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazfasi balki, bu jamiyatdagi har bir insonning burchi, boshqa davlat tashkilotlarining ham bajarishlari lozim bo'lgan funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ularga qarshi kurashishda ko'proq yoshlar bilan ishlash esa sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning oldini olish biloan barobardir. Ya'niki, jamiyatda giyohvandlarni ushlash, ularga tegishli chora ko'rish va tuzalish yo'liga kiritishdan ko'ra ularni giyohvand bo'la boshlaganidan to'xtatish osonroq va samaraliroqdir.





SCIENTIFIC CONFERENCE OPEN PROCEEDINGS

Global Academic Knowledge Repository



REFERENCES:

1. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to’g’risida”gi 813-sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent – 19.08.1999 y
2. “Huquqbuzarliklar to’g’risida”gi 371-sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent – 14.05.2014 y
3. “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi 406-sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni. 19-modda tegishli bandlari. Toshkent – 14.09.2016 y
4. “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi 407-sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent – 16.09.2016 y
5. “Davlat xavfsizlik xizmati to’g’risida”gi 471-sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent – 05.04.2018 y

Contact: 99 826 99 56

